

B.S. Isomov, N.X. Kuliev,
M.H. Tadjiibaev, S.Q. Fayzieva,
S.A. Toylova



МЕДИНАТ ВА ТУРИЗМ БОЗОРИ

Ўзбекистон



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

B.S. Isomov, N.X. Kuliev, M.B. Tadjibaev,
S.Q. Fayzieva, S.A. Toyirova

MEHNAT VA TURIZM BOZORI

monografiya

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2022

UO'K 005:338.48

65.290-2

65.432

M 47

Mehnat va turizm bozori [Matn] / B.S. Isomov, N.X. Kuliev, M.B. Tadjibaev, S.Q. Fayzieva, S.A. Toyirova. - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2022. - 116 b.

**KBK 65.290-2
65.432**

Ushbu monografiya oliy o'quv yurtlarining 600000, 610000, 5610200, 5610300 ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tayyorlanadigan iqtisod, turizm, mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish bakalavr mutaxassislari uchun mo'ljallangan. Monografiyada mehnat va turizm bozorining nazariy va amaliy masalalari namoyon qilingan. Unda mehnat resurslari, turizm xizmatlarini tahlil qilish metodologiyasi va usullari aks ettirilgan.

Аннотация. Учебник предназначен для студентов бакалавриата по специальностям экономика, туризм, менеджмент и организация гостиничного хозяйства, которые учатся в высших учебных заведениях по следующему направлению образования 600000, 610000, 5610200, 5610300. В данном монографии освещает теоретические и практические вопросы рынка трудовых ресурсов и туризма. Описана методология и методы анализа трудовых ресурсов, туристических услуг.

Mas'ul muharrir:

Navroz-zoda B.N. - BuxDU servis sohasi iqtisodiyoti kafedrası, professor, iqtisodiyot fanlari doktori

Taqrizchilar:

Hamroyev H.R. - Buxoro Buxoro Davlat Universiteti "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrası professori, i.f.n.

Boboyev A.CH. - Buxoro muxandislik texnologiya instituti "Menejment" kafedrası dotsenti, i.f.n.

Monografiya BuxDU ilmiy-texnik kengashining 2021-yil 28-sentabrda 1-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8076-1-7

KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiy bozorni rivojlantirish uchun ko'plab kontsepsiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bozor mexanizmi tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirishni, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni va milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlaydi. Jahonda iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob esa insoniyat hayotini shiddat bilan o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro mehnat bozorida raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi. Agar biz mamlakatimizda barqaror iqtisodiyotni qurmoqchi bolsak, unda haqiqiy bozor mexanizmini hayotga tadbiiq qilishimiz shart. {1}

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish davrida mehnat va turistik xizmatlar bozorlarini yangicha yondoshuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan. Bundan tashqari, globalashuv jarayonining chuqurlashuvi va ilmiy ko'p talab qiluvchi texnologiyaga asoslanib ishlab chiqarishning ustvor rivojlanishi har qanday mamlakatning turmush tarzining yaxshilanishi zaruriy sharti innovatsion faollik bilan belgilanadi. Innovatsion faollik, o'z navbatida, davlatning boshqaruvi va ilmiy-texnik jarayonlari, uning innovatsiyalariga e'tibor va salohiyati, shuningdek, jamoat ma'naviy holatiga bog'liq. Bu borada turizm xizmatlar bozorining rivojlanish tendentsiyalari, ishdan, sohadagi innovatsion rivojlanishga alohida e'tibor qaratilayotgani dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, turizm - iqtisodiyotning muhim, strategik tarmoqlaridan biri. Prezidentimizning 2016-yil 2-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni mohiyati, ushbu hujjatdan kelib chiqadigan dolzarb masalalarini hal qilish hozirgi davrning markaziy vazifasidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidlab o'tildi.